



PAREMIOLOGIK SINKRETIZMDA MAZA-TA'M BILDIRUVCHI SIFATLAR

Andijon davlat universiteti

katta o'qituvchisi: **Teshaboyeva Gulnoza**

Paremiyalarga maqol, matal, hikmatli so'zlar, frazemalar, aforizmlar kiradi. Paremiyalar har bir xalqning milliy olam manzarasida alohida o'ringa ega. Antropotsentrik ilmiy paradigmadagi milliy paremiyalar semantik xususiyatlarni, obrazlilikni yoritib beradi

Paremalarning bir turi bo'lgan frazemalarda maza-ta'm bildiruvchi sifatlar qatnashganlari nisbatan kam. Bunday frazemalar, asosan, insonga taalluqli bo'lib, ular uchga bo'linadi¹³:

1. Xarakter xususiyatlarni bildiradi.
2. Psixologik holatni bildiradi.
3. Sub'yektiv bahoni bildiradi.

1. Insonga xos bo'lgan xarakter xususiyatlarni ifodalashda maza-ta'm bildiruvchi qattiq, yumshoq, issiq, sovuq kabi so'zlar qatnashgan frazemalarni tahlil uchun ajratdik.

Ko'ngli qattiq Varianti: tosh ko'ngil. Sinonimi: tosh yurak. Qattiq so'zi uzual ma'nosida jism belgisini bildirib keladi, lekin bu frazemada rahm-shafqati yo'q insonni ifodalaydi, ya'ni antropofonik belgiga ega bo'ladi, semantik sinkretizmni ifodalaydi:

2. Insonning psixologik holatini ifodalovchi frazemalar: Insonga xos bo'lgan xarakter xususiyatlarni ifodalashda maza-ta'm bildiruvchi qattiq, yumshoq, issiq, sovuq, maza, achchiq va achidi (gan), kuydi(gan), aynidi(gan) kabi so'zlar qatnashgan frazemalarni tahlil uchun ajratdik.

Achchig'(i) keldi, achchig'ini keltirmoq. Varianti: jahli keldi, jahlini keltirmoq, qahri keldi, g'azabi keldi. Sinonimi: g'azabga kelmoq, g'azabga keldi, achchig'i qistab ketdi, qoni qaynadi. O'xshashi: jahl chiqdi.

¹³ Фраземалар Ш.Раҳматуллаевнинг "Ўзбек фразеологизмларининг изоҳли луғати" китобидан олинди. -Тошкент,



Achchiq sifati uzual ma'noda maza-ta'mni bildirsa, bu frazemada insonning psixologik holatini bildiradi, g'azabi, qahri kelgan insonni ifodalaydi, semantik sinkretizmni hosil qiladi.

Bunga Botirning achchig'i keldi, buni Bo'ston sezdi. (S.Nazar. Yashil boylik) Bor, eshikni zanjirla, tez bor, eshon pochchangning achchig'ini chiqarma! (P.Tursun. O'qituvchi) Sharif akaning talmovsirashga o'xshab aytgan gapi Roziya xolaning achchig'ini keltirdi. (N.Nazarov.Zamon)

Bu frazemaning yana quyidagicha varianti ham mavjud: Achchig'ini keltirmoq, achchig'i chiqdi, achchig'i qistadi: Bu gapni eshitib, oyimning achchig'i qistab ketdi (H.Nazir. Cho'l havosi). "Qanday jinoyat?" – dedi Umarali bu savoldan jahli qistab (I.Rahim. Ixlos).

Frazemalarda sub'yektiv baho ham semantik sinkretizm natijasida ifodalanadi. Mazasi yo'q frazemasida bemaza ma'nosida emas, semantik sinkretizm asosida uch ma'noda qo'llanadi. O'xshashi: tobi yo'q.

Sog'lig'i yomon holatda:

1. Men ham juda chardadim. Mazam yo'q. Xo'p rohatda edik, oyimcha, tinchlik barbod bo'ldi. (Oybek.Oltin vodiyan shabadalar) Misolda frazema sog'liq yomonligini bildirib kelayapti.

2. Harakati, layoqoti sust:"Choyga qarang, quda buva. Hech mazangiz yo'q, olib o'tirsangiz-chi"(S.Anorboyev. Kuyov) Ushbu misolda harakat sustligini, ishtahaning yo'qligini bildirib kelmoqda.

3. Chunonchi men u kuni o'g'lingizni imtihon qilib ko'rdim. Mazasi yo'q! (A.Qahhor. O'jar) Bu misolda frazema bilimning pastligini bildiradi.

4. Yomon, sifatsiz: Bu ishga sen aralashma. Kampir mazasi yo'q ayol.(Said Ahmad).

Ushbu misolda kampirning yomon kishi ekanligini bildirmoqda. Kampir mazasi yo'q ayol tuzilmasi kampirning mazasi yo'q tarzida bo'lganda ma'no boshqacha bo'lardi, ya'ni kampirning o'zi emas, balki sog'ligi yomonligini bildirgan bo'lardi.

Demak, frazemalarda maza-ta'm bildiruvchi sifatlar semantik sinkretizm natijasida inson xarakter xususiyatlarini, psixologik holatini va sub'yektiv bahoni ko'rsatib keladi. Bu frazemalarda qattiq-yumshoq, issiq-sovuq antonimlari orqali salbiy va ijobiy xususiyatlar



bildiriladi. Ba'zi holatlarda soʻzning sememasida ziddiyat yuzaga keladi va ushbu soʻz enantiosemik birlikka aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фраземалар Ш.Раҳматуллаевнинг “Ўзбек фзеологизмларининг изоҳли луғати”.Тошкент Ўқитувчи, 1979. – 223 с
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси // www.ziyouz.com kutubxonasi]. 222 б.
3. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 6-8 б.(286 б)
4. Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). – Ташкент: Фан